

PEDAGOGIK MAHORATNI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Rahmonzoda Dildoraxon

Farg’ona davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o’quvchilarning bilimlarni chuqurroq va mazmunli o’zlashtirishiga xizmat qiluvchi interaktiv metodlarning mohiyati hamda ularni sinf darslarida qo’llash bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu metodlar orqali darslarni qiziqarli va samarali tashkil etish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Interaktiv metod, “Klaster” usuli, innovatsion dars, metod, audio va video materiallar, elektron darsliklar, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Kirish. Zamonaviy axborot texnologiyalari interaktiv metodlardan foydalanish uchun katta imkoniyatlar yaratib berayotgani ta’kidlangan. Interaktiv metodlar hamda didaktik o’yinlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirish, dars samaradorligini kuchaytirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodlarning samaradorligi esa ta’lim muassasasida innovatsion faoliyatning qay darajada to’g’ri tashkil etilganiga bog’liq bo’ladi. Interaktiv yondashuvlardan foydalanish o’quv mashg’ulotlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interaktiv ta’limning asosiy xususiyatlari qatoriga erkin munozaralar tashkil etish, o’quv materiallarini mustaqil bayon qilish, ma’ruza mashg’ulotlarini kamaytirib, seminar va amaliy mashg’ulotlarni ko’paytirish kiradi. Bundan tashqari, o’quvchilarning tashabbus ko’rsatishiga imkon yaratish, kichik va katta guruhlarda ishlash, jamoaviy faoliyatni yo’lga qo’yish hamda yozma topshiriqlarni bajarish kabi usullar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o’rin tutadi.

Asosiy qism. Ta’lim muassasalarida interaktiv metodlardan foydalanishni tashkil etish uchun zarur pedagogik sharoitlar ko’rsatib o’tilgan. Jumladan, ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish, interaktiv metodlarning o’ziga xos jihatlarni aks ettiruvchi pedagogik qoidalarni ishlab chiqish hamda ushbu faoliyatni samarali boshqarishga xizmat qiladigan yangilangan boshqaruv tizimini shakllantirish muhim omillar sifatida qayd etiladi. Hozirgi davr ta’lim tizimida innovatsion o’qitish usullaridan keng foydalanilmoqda. Bunday metodlardan foydalanish dars jarayonida kutilgan natijalarga erishishga yordam beradi. Interaktiv metodlarni tanlashda har bir mashg’ulotning didaktik maqsadidan kelib chiqish lozim. Shu bilan birga, an’anaviy dars shaklini saqlagan holda, uni o’quvchilar faolligini oshiruvchi zamonaviy metodlar bilan boyitish o’zlashtirish darajasining yuqori bo’lishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida pedagogik texnologiyalarni keng qo’llash orqali ta’lim samaradorligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Interaktiv metodlar ham ana shunday zamonaviy pedagogik texnologiyalarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning ko’plab turlari mavjud bo’lib, ular ta’lim jarayonining turli yo’nalishlarida samarali qo’llanadi. Amaliyotda esa dars maqsadiga mos interaktiv metodlarni tanlab qo’llash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Ta’lim jarayonida muayyan maqsadlarga erishish uchun mos interaktiv metodlarni tanlash muammosi yuzaga kelmoqda. Shu sababli dars jarayoni o’qituvchi tomonidan oldindan puxta rejalashtirilishi, mashg’ulotlar oqilona tashkil etilishi zarur. O’qituvchi o’quvchilarning fanga bo’lgan qiziqishini oshirib borishi va ularning faolligini muntazam rag’batlantirib turishi kerak. Bunda muammoli vaziyat yaratish, “aqliy hujum”, munozara, yo’naltirilgan matn, loyiha usuli,

kichik guruhlarda ishlash, rolli o'yinlar kabi metodlardan foydalanish hamda o'quvchilarni mustaqil amaliy topshiriqlarni bajarishga undash muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni tanlash o'quv maqsadi, o'quvchilar soni va imkoniyatlari, ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, o'qitish davomiyligi hamda pedagogning kasbiy mahorati kabi omillarga bog'liqligi ta'kidlangan. Interaktiv metodlarning mohiyati o'zaro muloqot, fikr almashish va hamkorlik asosida muammoni hal qilishdan iboratdir. Ushbu metodlarning afzalligi shundaki, ular o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatib, uni hayotga tayyorlaydi. Interaktiv metodlar ta'lim oluvchini o'quv jarayonining markaziga qo'yadi va uni faol fikrlashga undaydi. Bunday yondashuvda o'qituvchi o'quvchini doimiy ravishda faol ishtirok etishga chorlaydi. Natijada ta'lim samaradorligi oshadi, o'quvchilarning motivatsiyasi kuchayadi, avvalgi bilimlari hisobga olinadi va ta'lim jarayoni ularning ehtiyojlariga moslashtiriladi. Shuningdek, o'quvchilarning tashabbuskorligi va mas'uliyati qo'llab-quvvatlanadi, bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyati yaratiladi hamda ikki tomonlama fikr-mulohaza almashinuvi ta'minlanadi. Fanlarni o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir metodni chuqur o'rganish va amaliyotda samarali qo'llash o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, muammolarga to'g'ri yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning ijodkorligi va faolligini oshirishga xizmat qiladi. Turli nazariy va amaliy masalalarni interaktiv usullar orqali tahlil qilish natijasida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari yanada boyiydi va mustahkamlanadi. Bugungi kunda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati nihoyatda katta. Ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat samaradorligi innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois innovatsion ta'lim texnologiyalari o'quvchilarda kasbiy bilim, amaliy ko'nikma va shaxsiy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan murakkab integrativ tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ta'limda interaktiv metodlarni o'rganishda zamonaviy elektron vositalarga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Ular ta'limdagi innovatsion jarayonlarning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Umumiy ta'lim tizimida fanlararo yondashuv keng qo'llaniladi va bunda o'quv fanlari katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida esa ta'lim jarayonida kerakli ma'lumotlarni topish, ulardan foydalanish va amaliyotga tatbiq etish ancha qulay va samarali bo'lmoqda. Interaktiv metodlar asosida o'qitish ta'lim jarayonini faol va hamkorlikka asoslangan tarzda tashkil etishni nazarda tutadi. Bunday jarayonda pedagog yetakchi shaxs bo'lib qoladi, ammo o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun kasb etadi. Asosiy e'tibor faqat ma'lumot berishga emas, balki o'quvchilarning darsdagi faol ishtiroki va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratiladi. Interaktiv metodlar orqali ta'lim berish bugungi kunda zamonaviy o'qitish shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodlarning asosiy maqsadi axborot texnologiyalari va innovatsion usullardan foydalanish orqali dars samaradorligini oshirishdir. Shu bilan birga, ular o'quvchilarda fanlarga qiziqishni kuchaytiradi, ijodiy yondashuvni shakllantiradi, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda fanlararo bog'liqlikni anglashga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida ko'plab muhim vazifalar amalga oshiriladi. Jumladan, multimedia vositalari, elektron darsliklar, telekonferensiyalar va boshqa kompyuter texnologiyalari o'quv jarayonini yanada jonlantiradi. Interaktiv metodlar nafaqat nazariy bilimlarni egallashda, balki texnologik fanlarni o'qitishda ham katta ahamiyatga ega. Bunday darslarda pedagog mavzuni o'zlashtirish uchun muayyan topshiriq beradi, o'quvchilar esa uni hal qilish yo'llarini izlaydilar. Jarayon davomida ular muammoli savollar qo'yadi, o'z fikr va taxminlarini bildiradi hamda o'zaro muloqot asosida ishlaydi. Interaktiv metodlarning asosiy mohiyati barcha ishtirokchilarning dars jarayonida faol qatnashishidan

iboratdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘limda innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olishiga, muloqot ko‘nikmalarining rivojlanishiga va bilimga bo‘lgan qiziqishining ortishiga xizmat qiladi. Natijada, o‘quvchilar zamonaviy hayot muammolarini tahlil qilish va ularni samarali hal etish ko‘nikmalarini egallaydilar. Faol interaktiv metodlardan biri “Klaster” metodidir. Ushbu metod o‘quvchilarning ma‘lum bir mavzu yuzasidan erkin va keng fikr yuritishiga yordam beradi. Klaster usuli orqali o‘quvchilar turli tushunchalar, voqealar va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashni o‘rganadilar. “Klaster” so‘zi guruh yoki to‘plam ma‘nosini anglatadi.

Mazkur metod inson miyasi faoliyatining tabiiy xususiyatlariga asoslanadi va mavzuni chuqur o‘zlashtirishga xizmat qiladi. U yakka tartibda ham, guruh shaklida ham qo‘llanishi mumkin. Guruh bilan ishlash jarayonida har bir ishtirokchi o‘z g‘oyalarni bildiradi, ular umumlashtiriladi va o‘zaro bog‘lanadi. Bu esa jamoaviy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi. Klaster metodini qo‘llashda odatda quyidagi bosqichlarga amal qilinadi:

- mavzu yuzasidan barcha fikrlarni yozib borish;
- g‘oyalarni baholamasdan erkin ifodalash;
- yozuvdagi xato va kamchiliklarga e‘tibor bermaslik;
- ajratilgan vaqt davomida fikr yuritishni davom ettirish;
- yangi fikr kelmasa, chizma yoki belgilar orqali tafakkurni faollashtirish;
- imkon qadar ko‘proq g‘oyalarni ilgari surish va ular orasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish.

Shunday qilib, klaster metodi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, tasavvuri, tahliliy yondashuvi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi.

G‘oyalarni cheklemasdan ilgari surish va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish muhim hisoblanadi. Ushbu metodni ta‘lim jarayonida turli shakllarda qo‘llash mumkin. Darsni tashkil etishda yangi mavzuni samarali o‘zlashtirish maqsadida avval o‘tilgan mavzular yuzasidan qisqa takrorlash mashqlari o‘tkaziladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning ongida yangi mavzuni qabul qilish uchun zamin yaratadi va bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Klaster metodiga asoslangan guruhli darslarda har bir ishtirokchi o‘z fikrini bildiradi, keyinchalik barcha g‘oyalar umumlashtirilib, yagona tizimga keltiriladi. Mazkur metod boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil va erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ularning ijodiy kuzatuvchanligini oshiradi. Mashg‘ulot yakunida pedagog bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, xulosaga keladi. O‘quvchilarning bilimlari baholanadi va faol qatnashganlar rag‘batlantiriladi. Ma‘lumki, bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash mas‘uliyatli jarayon hisoblanadi. Ulardan chuqur bilim, amaliy ko‘nikma, fidoyilik, mustaqil qarash va muammolarga aniq yechim topa olish talab etiladi. Shu jihatdan faol metodlardan biri bo‘lgan klaster usuli zamonaviy talabga javob bera oladigan pedagoglarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod barcha turdagi ta‘lim muassasalarida kelajakdagi o‘qituvchilarni tayyorlashda samarali vosita sifatida qo‘llanishi mumkin.

Interaktiv metodlar jamoaviy fikrlashga asoslangan pedagogik ta‘sir usullari bo‘lib, ta‘lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning o‘ziga xosligi shundaki, bunday metodlar pedagog va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati asosida amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarda “Klaster” metodidan foydalanish o‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratish, ularning bilim darajasini aniqlash va fanlarga qiziqishini oshirish imkonini beradi. Interaktiv metodlarning asosiy maqsadi esa ta‘lim jarayonida o‘quvchilar uchun qulay muhit yaratish, ularni faol va erkin fikrlashga yo‘naltirishdan iboratdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarda turli metodlardan foydalaniladi. Ularni o‘quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari va bilim darajasiga qarab tanlash mumkin. Ayniqsa boshlang‘ich sinflarda “aqliy hujum”, “kichik guruhlarda ishlash”, “test”, “rolli o‘yinlar”, “klaster”, “sahna darsi”, “o‘yin darsi”, “fikrlar charxi”, “mening fikrim”, “taqdimot va

munozara”, “jumlaning davom ettir”, “ijodiy ish” kabi metodlar samarali natija beradi. Ushbu metodlar maqsadga yo‘naltirilgan holda, muammoli vaziyat yaratish va o‘quvchilarni faol ishlashga tayyorlash asosida qo‘llansa, kutilgan natijalarga erishiladi. Ta‘lim jarayonida har bir dars, suhbat, bahs-munozara va uchrashuv ma‘naviy-axloqiy tushunchalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Mashg‘ulotlarni audio, video, taqdimot, ko‘rgazmali vositalar va jonli nutq asosida tashkil etish muhimdir. Pedagoglar zamonaviy texnologiyalarni qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari va ijodkorlik bilan ishlashlari zarur.

Bugungi kunda interaktiv metodlar zamonaviy ta‘lim texnologiyalarining eng ommabop turlaridan biri hisoblanadi. Ular pedagog va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatiga asoslanib, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Boshlang‘ich ta‘limda interaktiv metodlardan foydalanish o‘quv jarayonini oldindan loyihalash, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash hamda nazorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik faoliyat samaradorligini baholash, o‘quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ularga mos ravishda harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan darslar yosh avlodning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. O‘quvchilar kerakli ma‘lumotlarni chuqurroq o‘zlashtiradi, o‘z fikrini erkin ifoda etishni o‘rganadi hamda guruh bilan ishlash jarayonida bir-birini hurmat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa. Interaktiv metodlar zamonaviy ta‘lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ular o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Bunday metodlar orqali tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va erkin munosabat bildirishga o‘rgatadi. An‘anaviy darslarda o‘quvchi ko‘proq tinglovchi vazifasini bajarsa, interaktiv metodlarda u ta‘lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu esa bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga va ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Interaktiv metodlarning asosiy afzalliklaridan biri o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik muhitini yaratishidir. Guruhli ishlash, bahs-munozaralar, rolli o‘yinlar va klaster kabi metodlar orqali o‘quvchilar bir-birining fikrini tinglashni, hurmat qilishni va jamoada ishlashni o‘rganadilar. Shu bilan birga, ular o‘z fikrini asoslab bera olish, muammolarga yechim topish va tezkor qaror qabul qilish malakalarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, “Klaster” metodining qo‘llanishi o‘quvchilarning erkin va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu metod yordamida o‘quvchilar mavzu yuzasidan turli g‘oyalarni ilgari suradi, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi va mavzuni tizimli ravishda tahlil qilishni o‘rganadi. Natijada, ularning tafakkuri kengayadi, ijodiy yondashuvi kuchayadi va bilimlarni mustaqil ravishda egallashga qiziqishi ortadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot vositalaridan foydalanish darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Audio va video materiallar, elektron darsliklar, taqdimotlar hamda multimediyaviy vositalari o‘quvchilarning mavzuni osonroq tushunishiga yordam beradi. Bu esa o‘quv jarayonida yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan metodlar o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos bo‘lsa, darsning samaradorligi yanada ortadi. Shu sababli pedagoglardan zamonaviy texnologiyalarni puxta egallash, ijodkorlik bilan ishlash va interaktiv metodlardan unumli foydalanish talab etiladi.

Umuman olganda, interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni barkamol, bilimli, mustaqil fikrlovchi va zamonaviy talablarga javob bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda

katta ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar o'quvchilarning nafaqat bilimini oshiradi, balki ularning shaxs sifatida rivojlanishiga, ijtimoiy faolligining ortishiga va kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishiga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abduqodirov A.A., "Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar", Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Hayitov.A.I. "Primary education pedagogy, innovation and integration". Publishing house "Zuhra Baraka Biznes". Date: 2021.
3. Karimova N.M., "Zamonaviy ta'limda interaktiv metodlar", Samarqand: Innovatsiya, 2019.
4. Khudoykulov H.J.; Bobokulova D.M. Pedagogy -T.: Innovation-Ziyo. 2021
5. X.A.Meliyev, O.Jamoldinova, K.Riskulova. "Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati". O'quv qollanma. Toshkent. 2021 yil. 284-bet.
6. X.A.Meliyev, M.X.Qilichova. "Maktabgacha pedagogika". Toshkent. Darslik. 2022 yil. 471-bet.
7. Jumayev B.B., "Ta'lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish", Andijon: Ma'rifat, 2018